



SCIENTIFIC-PEDAGOGICAL BASES OF ORGANIZATION OF INDEPENDENT WORK AND ITS SIGNIFICANCE IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING

Muwsa Narimbetov

Doctoral student of Nukus State Pedagogical Institute

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18439001>

ARTICLE INFO

Received: 24th January 2026

Accepted: 30th January 2026

Online: 31st January 2026

KEYWORDS

Independent work, English lessons, person-centered learning, activity-oriented approach, motivation and internal motivation, reflection and self-control, development of speech competence, development of vocabulary, formation of critical thinking, use of information and communication technologies, forms of independent work in foreign language teaching.

ABSTRACT

The article provides detailed information, ideas and comments on the scientific pedagogical foundations of organizing students' independent work, the organization of independent work in English lessons and its importance, as well as ways to effectively organize independent work in English lessons.

MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL ETISHNING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI VA UNING CHET TILI TA'LIMIDAGI AHAMIYATI

Muwsa Narimbetov

Ajiniyaz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18439001>

ARTICLE INFO

Received: 24th January 2026

Accepted: 30th January 2026

Online: 31st January 2026

ABSTRACT

M Maqolada talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishning ilmiy pedagogik asoslari, ingliz tili darslaridagi mustaqil ishlarning tashkil etilishi va uning ahamiyati, shuningdek, ingliz tili darslarida mustaqil ishlarni samarali tashkil etishning shakillari haqida batafsil ma'lumotlar, fikr va mulohazalar berilgan.



KEYWORDS

*Mustaqil ish, ingliz tili
darslari, shaxsga
yóntirilgan tálim,
foaliyatga yóntirilgan
yondashuv, motivatsiya va
ichki raǵbat, refleksiya va óz-
ózini nazorat qilish, nutqiy
kompetensiyani
rivojlantirish, luǵat boyligini
rivojlantirish, tanqidiy
fikrlashni shakllantirish,
axborot-kommunikatsiya
texnologiyalaridan
foydalanish, chet tili
ta'limidagi mustaqil ishlash
shakllari.*

Hozirgi zamon ta'lim tizimida talabalarga to'g'ri bilim va yo'nalish berishda ularning yangi bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan ishtiyoqi va masuliyati, mustaqil fikrlashi va mustaqil rivojlanishga bo'lgan harakatlarini shakllantirish juda muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalarning mustaqil ishlarini to'g'ri tashkil etish orqali, ularning mustaqil rivojlanishi va mustaqil fikrlash kabi muhim jihatlarini rivojlantirish mumkin bo'ladi. Ushbu maqolada mustaqil ishlarni samarali tashkil etishning pedagogik asoslari yoritiladi hamda unda misol sifatida chet tili ta'limi, ingliz tili darslari haqida bayon etiladi.

Mustaqil ishlar deganda organuvchining o'qituvchi rahbarligi ostida yoki o'qituvchining kórsatmalari ostida va undan tashqari holda, bilim va kónikmalarni egallashga bólgan harakatlari tushiniladi. Bunda talaba jarayonning foal subyekti bólib, foal va maqsadli harakatlarni amalga oshiradi, erkin tanlovlar qiladi. Mustaqil tálim jarayonida talabalar butun masuliyatni óziga olgan holda mustaqil shaxs sifatida harakatlanadilar (Brockett, Hiemstra, 2018). Pedagogika va psixologiya fanlarida mustaqil tálim foaliyati shaxsga yóntirilgan tálim, kompetensiyaviy yondashuv kabilar bilan bog'liqlikda órganiladi.

Mustaqil ishlarni samarali tashkil etish bóyicha quydagi pedagogik asoslar mavjud bólib hisoblanadi.

- Shaxsga yóntirilgan tálim

Ushbu jarayonda har bir talabaning shaxsiy qiziqishlari va qobiliyati hisobga olinadi. Har bir talabaning individual imkoniyatlari va bilim darajasi hisobga olingan holda mustaqil topshiriqlar beriladi hamda ushbu jarayonda individual ishlash orqali talabalarning bilimi rivojlanadi hamda tálim jarayonining samaradorligi oshadi.

- Foaliyatga yóntirilgan yondashuv



Ushbu jarayonda yangi bilim va kónikmalar foal harakatlar jarayonida egallanadi. Talaba mustaqil bilimlarni egallash, yangi malumotlarni manbalardan izlash hamda tahlil qilish orqali foal tarzda yangi bilimlarni egallaydi.

- Motivatsiya va ichki raġbat

Mustaqil yangi bilimlarni egallash va topshiriqlarni bajarish jarayonida talabalarning motivatsiyaga ega bólishi juda katta ról óynaydi. Jarayonni motivatsion ruhda tashkil etish va aniq maqsad sari harakat qilish orqali muntazam motivatsiyaga ega bólish mumkin bóladi. Buning uchun topshiriqlarni qiziqarli va real hayotga boġliqligi órganuvchining qiziqishlarining ortishiga turtki bóladi. Harkim mustaqil tarzda bilimlarni egallashi mumkin, buning uchun faqat motivatsiyaga ega bólish zarur (N. Eliason, 2018).

- Refleksiya va óz-ózini nazorat qilish

Mustaqil ta'lim jarayonida talabalar jarayonni mustaqil ravishda tahlil qilish orqali ózlari yól qoygan hatolarni aniqlashi hamda ularni muntazam ravishda tuzatib borishlari orqali yetuk bilimlarga ega bólishlari mumkin bóladi.

Mustaqil ishlar harqanday fanda va javhada juda muhim omil hisoblanadi. Chet tili ta'limida, xususan, ingliz tili tili darslarida ham yangi bilimlarni chuqur egallashda mustaqil ishlar juda ahamiyatli hisoblanadi sababi til órganishda muntazam mustaqil bilimlarni oshirib boruvchi mashqlarni qilish muhim hisoblanadi.

- Nutqiy kompetensiyani rivojlantirish

Ingliz tilida óqish, yozish, tinglash, gapirish, grammatik qoidalarni órganish kabi mashqlarni mustaqil ishlash orqali kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish mumkin bóladi.

- Luġat boyligini rivojlantirish

Leksik mashqlarni bajarish, yangi sóz va birikmalarni órganish, matnlar bilan mustaqil ishlash, yangi sózlarni real kontentta órganish va foydalanish orqali bilimlarni rivojlantirish mumkin bóladi.

- Tanqidiy fikrlashni shakillantirish

Ingliz tilidagi har xil kontentlar, matnlar bilan ishlash, ularni tahlil qilib savollarga javob topish orqali hamda harxil muammoli vaziyatlarga fikr bildirish orqali tanqidiy fikrlash kónikmalarini rivojlantirish mumkin bóladi.

- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish

Zamonaviy muhitda raqamli platformalar, mobil ilovalar, video va audio materiallardan foydalanish orqali mustaqil órganish imkoniyati kengayadi. Bu kabi imkoniyatlarning yaratilishi talabalarning nafaqat dars paytida balki darsdan sónġ mustaqil ravishda ilġor texnologiyalar bilan samarali mustaqil ishlashga zamin yaratadi (Bahari, Gholami, 2022). Mustaqil tálim jarayonida elektron resurslar va testlardan foydalanish orqali talabalarning virtual tálim muhitida mustaqil ishlash kónikmasining rivojlanishiga va keng resurslar oġimidan foydalanishga zamin yaratadi (M. Narimbetov).

Mustaqil ishlarni tashkil etishning birqancha samarali usullari mavjud bólib, ingliz tili darslarida quydagi usullardan foydalanish mumkin bóladi. Ushbu harakatlarni amalga oshirish orqali, til bilimlarini mustaqil tarzda rivojlantirish mumkin bo'ladi.



- Matnlar bilan ishlash

Har xil mavzudagi matnlarni óqish va yangi fikrlarga ega bólish, ularni har taraflama tahlil qilish va savollarga javob topish.

- Lu'gat bilan ishlash

Har xil mavzularga oid yangi lu'gatlarni órganish hamda ularni mustahkamlash uchun raqamli óyin usullaridan foydalanish.

- Grammatik mashqlarni bajarish

Yangi grammatik qoidalarni órganish, video materiallardan foydalanish, har xil usullarda mashqlarni bajarib grammatik bilimlarni tekshirish va mustahkamlash.

- Esse va insho yozish

Ingliz tilida manoli va grammatik jihatdan tóg'ri insholarni yozib órganish.

- Dialoglar va monologlar tuzish

Har xil platformalar yordamida onlayn suhbatlar tashkil etish orqali ingliz tilida sózlashuvni rivojlantirish. Ingliz tilini órganish jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalangan holda konferenciyalarga qatnashish imkoniyatini yaratish hamda interaktiv usullarda jarayonni sifatli tashkil etish zarur (M.A. Begmatov).

- Loyihaviy ishlar

Juftlikda va guruhda loyihaviy ishlarda qatnashish.

- Taqdimotlar tayyorlash

Ingliz tilida taqdimotlar tayyorlash va uni bayon qilishni órganish.

Xulosa qilib aytadigan bólsak, mustaqil ishlarni tashkil etish orqali mustaqil fikrlovchi, yetuk bilimli, masuliyatli va raqobatbardosh shaxslarning shakillanishiga erishish mumkin bóladi.

References:

1. Bahari, A. and J. Gholami (2022), "A Systematic review of current research on affordances and challenges of technology-assisted grammar learning", Computer Assisted Language Learning, Vol. 32/1, pp. 125-148.
2. Begmatov M.A. "Raqamli texnologiyalar davrida ingliz tilini intensiv o'qitishning psixologik va pedagogic jihatlari (ixtisoslashgan maktablar misolida). Raqamli texnologiyalar davrida tillarni intensive o'qitishning psixologik – pedagogic jihatlari Respublika ilmiy – amaliy anjumani. 2023 – yil 2- iyun.
3. Brockett, R.G. and Hiemstra. R..2018. Self-direction in adult learning: Perspectives on theory, research and practice. Routledge.
4. Eliason, 2018 - Eliason, N. (2018). Self-Education: Teach yourself anything with the Sandbox Method. You're looking great today. [Electronic resource]. URL: <https://www.nateliason.com/blog/self-education>.
5. M. Narimbetov (12/2-son dekabr 2024). "OLIY TA'LIMDA MUSTAQIL TA'LIM JARAYONINI TASHKIL ETISH VA UNDA RAQAMLI
6. TECHNOLOGYALARNING ROLI"/Ilm sarchashmalari/ Urganch-2024. (91-94 b).